

## INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

*Navoiy viloyat Uchquduq tumani  
1-maktab ingliz tili o'qituvchisi  
Abdullayev Alisher Farxodovich*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning axborot kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi qay darajada rivojlanganligi tahlil keltirilgan hamda o'qituvchilarining axborotlar bilan ishslash kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, ta'lim o'qituvchi, kompetensiya, ingliz.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kompyuter texnologiyalari imkoniyatlarining uzlusiz o'sib borishi va uning inson hayotining barcha jabhalariga kirib borishi ta'lism sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini tug'dirmoqda. Oliy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar bevosita axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan intensiv va ommaviy foydalanish bilan ajralib turadigan zamonaviy jamiyatning axborotlashuviga bog'liq. Bu o'z sohasida etaricha katta nazariy bilimga va yetarli tajribaga ega, axborot jamiyatining o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi [1]. O'qituvchining axborot kompetentsiyasining ahamiyati, shuningdek, ta'lim sifatini rivojlantirish va yaxshilash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli farmonida «Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyatga joriy etish» kabi ustuvor vazifalar belgilangan [2]. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida fanlarni, o'qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu tendentsiya bilan bog'liq holda, zamonaviy ta'lim tizimi hal qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash vazifasidir. Zamonaviy o'qituvchi ulkan ma'lumotlar oqimini boshqarishi, uni o'quv faoliyatida qo'llash uchun uni tahlil qilish, umumlashtirish va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu muammolarni hal qilish uchun bo'lajak o'qituvchilarda axborot kompetensiyasini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'z ichiga olgan ta'lim muhitida axborot kompetentsiyasini rivojlantirish zarur, chunki bu muhitning mutlaqo yangi didaktik salohiyati ta'limda yangi natijalarga erishishga yordam beradigan o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning axborotlar bilan ishslash kompetentsiyalarini takomillashtirish

bo‘yicha E.P. Velihov, A.P. Ershov, O.B. Zaitseva, E.I. Mashbits, V.M. Monaxov, T.A. Gudkova, L.B. Senkevich, T.N. Lukin va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan V.M. Monaxov innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda bo‘lajak o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish bo‘icha, T.A. Gudkova bo‘lajak informatika o‘qituvchisining axborot kompetentsiyasini shakllantirish, L.B. Senkevich axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bo‘lajak matematika o‘qituvchisining axborot kompetentsiyasini shakllantirish, T.N. Lukin bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish bo‘yicha izlanishlar olib borganlar [3].

Ta’lim muhitida axborot-texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha V.A. Yasvin, V.V. Rubtsov, S.D. Deryabo, V.I. Slobodchikov, K.D. Ushinskiy va boshqalar. Mutaxassislar malakasini oshiriish va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni E.F. Zeer, A.B. Xutorskogo, T.I. Shamova, N.M. Yakovleva.

Ta’limni axborotlashtirishning umumiyligi muammolari bo‘yicha E.E. Vaxromov, B.S. Gershunskiy, S.D. Qoraqozov, D.Sh. Dengizchi, E.S. Po‘lat, J. Raven, I.V. Robert, M.A. Kholodnaya va boshqalar. O‘quv jarayonida axborot ta’lim resurslaridan foydalanish masalalari A.A. Andreev, L.A. Ivanova, V.I. Soldatkin va boshqalar tadqiqolar olib borganlar.

Yuqoridagi tadqiqotchilarining ishlarida ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo‘lsada innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentliligini rivojlantirishga oid tadqiqotlar maxsus monografik tadqiq qilinmagan.

Keng tarqalgan axborotlashtirishning zamонави sharoitida ta’lim samaradorligi bevosita o‘qituvchining axborot malakasi darajasiga bog‘liq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri proportionaldir. Bu o‘qituvchining kasbiy o‘sishining omilidir, chunki u nafaqat shaxsiy kompyuterda ishlash qobiliyatini, balki umuman axborot bilan va zamонави o‘qitish vositalari bilan ishlash qobiliyatini ham nazarda tutadi. Pedagogik, ilmiy va maxsus adabiyotlarni o‘rganish, shuningdek, tadqiqot mavzusi bo‘yicha nashrlarni ko‘rib chiqish asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish muammosi qay darajada rivojlanganligi tahlil qilindi. Biz quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqladik:

- ta’limni axborotlashtirishni rivojlantirish va zamонави didaktik o‘quv qo‘llanmalaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi, shuningdek, oliy ta’limning fan yo‘nalishlarida elektron axborot resurslarining yaxshi rivojlanmaganligi;

- zamонави jamiyatning ortib borayotgan talablari, universitetda bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash sifati bo‘yicha ta’lim tartibining mazmuni va o‘qituvchilarining axborot tayyorgarligining yetarli darajada emasligi;

- yuqori sifatli axborot tayyorgarligiga ega bo‘lgan malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi va bo‘lajak o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish tizimining yo‘qligi.

Tuzilgan qarama-qarshiliklar tadqiqot muammosini - bo‘lajak o‘qituvchilarining xususan ingliz tili o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini rivojlantirish zarurligini aniqlashga imkon beradi. Muammoning dolzarbligi va ahamiyati tadqiqot mavzusini belgilab berdi va uni quyidagi shakllantirishga olib keldi: Pedagogika universitetining ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarining axborot kompetentsiyasini shakllantirish.

Pedagogika universitetining ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchining axborot kompetentsiyasini shakllantirish modelini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish. Ushbu

modelning samaradorligini eksperimental tasdiqini topdi. Bo'lajak ingliz ingliz tili o'qituvchilarini samarali tayyorlashning usul va vositalari belgilab olindi. Ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy amalga oshirish uchun zarur bo'lgan komponentlar belgilab olindi. Modeldan foydalanish tajribasi ilmiy maqolalarda o'z aksini topgan va chop etilgan va undan oliv o'quv yurtlari o'qituvchilari talabalar bilan ishslashda foydalanishlari mumkin. Axborot kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2009. –146 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. Безручко А.С. Методика обучения решению дифференциальных уравнений будущих учителей математики, основанная на использовании информационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. ——– Москва, 2014. –231 с.